

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Nalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 140-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140





UO'K: 330.322:69.003(575.1)

QURILISH SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: Boyfame00@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi - investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining iqtisodiy mohiyati va tarkibiy elementlarini ochib berish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan nazariy-konseptual model ishlab chiqishdan iborat. Institutsional-dinamik tahlil, qiyosiy tahlil va statistik usullar asosida qurilish tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borayotgani, ammo institutsional-huquqiy va risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi investitsiya oqimidan ortda qolayotgani aniqlandi. Olingan natijalar qurilish korxonalarida investitsion jarayonni boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, qurilish sanoati, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi, investitsion muhit, davlat-xususiy sheriklik, institutsional yondashuv, investitsion jozibadorlik, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, investitsion samaradorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы управления механизмом привлечения инвестиций на предприятиях строительной промышленности. Цель исследования заключается в раскрытии экономической сущности и структурных элементов механизма привлечения инвестиций, выявлении факторов, влияющих на него, а также в разработке теоретико-концептуальной модели его совершенствования. На основе институционально-динамического, сравнительного и статистического анализа установлено, что объём инвестиций, направляемых в строительную отрасль, демонстрирует устойчивый рост, однако развитие институционально-правовых механизмов и механизмов управления рисками отстаёт от темпов роста инвестиционных потоков. Полученные результаты могут служить научной основой для совершенствования практики управления инвестиционными процессами на строительных предприятиях.

Ключевые слова: инвестиции, строительная промышленность, механизм привлечения инвестиций, инвестиционный климат, государственно-частное партнёрство, институциональный подход, инвестиционная привлекательность, управление рисками, финансовая устойчивость, инвестиционная эффективность.

Annotation. This article examines the theoretical and methodological foundations of managing the investment attraction mechanism in construction industry enterprises. The purpose of the study is to reveal the economic essence and structural components of the investment attraction mechanism, identify the factors influencing it, and develop a theoretical and conceptual model aimed at improving this mechanism. Based on institutional-dynamic analysis, comparative analysis, and statistical methods, it was found that the volume of investments directed to the construction sector has been steadily increasing; however, the development of institutional-legal frameworks and risk management mechanisms lags behind the growth of investment flows. The findings provide a scientific basis for improving investment process management practices in construction enterprises.

Keywords: investment, construction industry, investment attraction mechanism, investment climate, public-private partnership, institutional approach, investment attractiveness, risk management, financial stability, investment efficiency.





KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalar muhim omil hisoblanadi. Qurilish sanoati esa iqtisodiyotning kapital sig'imkor tarmog'i sifatida investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji eng yuqori bo'lgan sohalardan biriga kiradi. Ushbu tarmoqda amalga oshiriladigan investitsion loyihalar nafaqat qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini, balki bog'liq tarmoqlar - qurilish materiallari ishlab chiqarish, transport-logistika, bank-moliya xizmatlari va mehnat bozorining rivojlanishini ham belgilaydi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yildagi 239,6 trln so'mdan 2025 yilda 591,1 trln so'mga yetib, qarib 2,5 baravar oshgan, shu bilan birga qurilish va ko'chmas mulk sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,7 foizdan 9,1 foizgacha ko'tarilgan [16]. Mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2024 yilda 1,6 baravar oshib, 34,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi [17]. Ushbu ko'rsatkichlar qurilish sanoatining investitsion jozibadorligi ortib borayotganini ko'rsatsa-da, tarmoqda investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishning institutsional-huquqiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari hali to'liq takomillashmagan.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega: uzoq muddatli loyiha sikli, yuqori kapital sig'imkorligi, normativ-huquqiy tartibga solishning murakkabligi hamda bozor, moliyaviy va qurilish-texnik risklarning yuqoriligi. Mazkur xususiyatlar investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishda tizimli, ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu bilan birga, amaldagi nazariy adabiyotlarda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi ko'pincha umumiy iqtisodiy kategoriya sifatida qaralib, qurilish sanoatining tarmoq xususiyatlarini to'liq hisobga oluvchi konseptual model yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Sohada mavjud asosiy muammolar quyidagilardan iborat: birinchidan, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining institutsional-huquqiy asoslari tarmoq xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi; ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik va konsessiya mexanizmlaridan qurilish sanoatida foydalanish darajasi past; uchinchidan, investitsion risklarni baholash va boshqarish tizimi yetarli darajada shakllanmagan; to'rtinchidan, investitsion jarayon samaradorligini baholash uchun yagona mezonlar tizimi mavjud emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarni jalb qilish nazariyasi iqtisodiy fanning klassik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. J.Danningning eklektik paradigma (OLI) nazariyasiga ko'ra, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish korxonaning mulkiy (Ownership), joylashuv (Location) va internalizatsiya (Internalization) ustunliklarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib, bu nazariya qurilish sanoatida xorijiy investorlarning mahalliy bozorni tanlash motivlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [1].





J.M.Keynsning investitsiyaning chegaraviy samaradorligi konsepsiyasiga ko'ra esa investitsion qarorlar kutilayotgan daromadlilik bilan kapital xarajatlari o'rtasidagi nisbatga asoslanadi, bu esa qurilish loyihalarining uzoq muddatli va yuqori kapital sig'imkor xususiyatini hisobga olgan holda investitsion qarorlar qabul qilish nazariyasining fundamental asosini tashkil etadi [2].

So'nggi yillarda chop etilgan xorijiy tadqiqotlarda qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining zamonaviy jihatlari chuqur o'rganilmoqda. J.Chju va Sh.Ningning Xitoy qurilish sanoati misolida o'tkazilgan tadqiqotida korporativ raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan qurilish korxonalari strategik investitsiyalarni, jumladan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni jalb qilishda sezilarli ustunlikka ega ekani empirik ravishda isbotlangan [3]. M.A.Tachega va hammualliflarning BRIKS+ mamlakatlari misolida olib borilgan tadqiqotida tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar bilan investitsiya oqimi o'rtasidagi bog'liqlik institutsional sifat (tartibga solish sifati, hukumat samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish) orqali vositalanishi aniqlangan [4]. Bundan tashqari, amaliyotchi tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda qurilish texnologiyalari (construction tech) sohasiga yo'naltirilgan venchur investitsiyalar hajmi 2020-2022 yillarda 11,5 milliard AQSh dollaridan ortganligi qayd etilib, bu tarmoqda raqamli innovatsiyalarga investitsiyalar jalb qilish yangi ustuvor yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi [5].

MDH davlatlari misolida ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. K.Mamonov va hammualliflarning Ukraina qurilish korporatsiyalari misolida o'tkazilgan tadqiqotida investitsion jozibadorlik moliyaviy-iqtisodiy, innovatsion, fazoviy-shaharsozlik, ekologik, manfaatdor tomonlar bilan bog'liq va xavfsizlik omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi tizim sifatida izohlangan, bu esa boshqaruv qarorlari uchun miqdoriy asos yaratadi [6]. T.Kitaychukning tadqiqotida esa investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tasniflanib, ularning korxona darajasidagi boshqaruv mexanizmlariga qo'shgan hissassi ochib berilgan [7].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham mavzuning amaliy jihatlari yoritilgan. O.T.Astonaqulov va hammualliflarning tadqiqotida innovatsion sanoatda investitsion jarayonni buxgalteriya hisobida aks ettirishning strategik ahamiyati asoslanib, investitsion qarorlarning moliyaviy hisobotlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilgan [8]. Muallifning o'zi tomonidan ilgari olib borilgan tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatidagi investitsion loyihalarining holati va investitsion boshqaruvning asosiy elementlari tahlil qilinib, tarmoqda investitsion jarayonni boshqarishning tashkiliy jihatlari ochib berilgan edi [9]. Shuningdek, qurilish tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda institutsional omillarning moliyaviy natijalarga ta'siri asoslangan [10; 11].

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash mumkinki, mavjud ilmiy adabiyotlarda investitsiyalarni jalb





qilishning umumiy nazariy asoslari (Danning, Keyns) hamda alohida omillari (institutsional sifat, raqamli transformatsiya, investitsion jozibadorlik) keng o'rganilgan bo'lsa-da, qurilish sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini (uzoq muddatli loyiha sikli, yuqori kapital sig'imkorlik, normativ-huquqiy murakkablik) hisobga oluvchi, mexanizmning barcha tarkibiy elementlarini qamrovchi yaxlit konseptual model O'zbekiston sharoitida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu maqolada qo'llaniladigan mualliflik yondashuvining nazariy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, qurilish korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligiga institutsional birliklarning ta'sirini baholashda korrelatsion va regression usullardan foydalanildi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor qurilish sanoati korxonalarida investitsion boshqaruv mexanizmlarining nazariy asoslarini ochib berishga qaratilgan. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank hamda xalqaro moliya tashkilotlarining rasmiy hisobotlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi deganda korxona faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ichki va tashqi manbalardan jalb qilish, taqsimlash hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy vositalar majmui tushuniladi. Qurilish sanoati korxonalari uchun ushbu mexanizm alohida ahamiyatga ega, chunki tarmoq yuqori kapital sig'imkorligi, uzoq muddatli loyiha sikli va ko'p sonli manfaatdor tomonlar (buyurtmachilar, pudratchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, davlat idoralari) ishtiroki bilan tavsiflanadi. Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi faqat moliyaviy resurslarni to'plash bilan cheklanmaydi, balki investitsion qarorlar qabul qilish, loyihalarni baholash, risklarni taqsimlash va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining tarkibiy elementlarini tizimli ravishda ko'rsatish maqsadida quyida tahliliy jadval keltirilgan (1-jadval).

1-jadvalda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi olti asosiy tarkibiy elementdan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Institutsional-huquqiy asos barcha boshqa elementlarning samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratsa, moliyaviy-kredit mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik vositalari investitsiya manbalarining xilma-xilligini ta'minlaydi. Risklarni boshqarish va nazorat-monitoring tizimlari esa investitsion jarayonning barqarorligi va samaradorligini kafolatlaydi.





1-jadval

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining tarkibiy elementlari

Tarkibiy element	Mazmuni	Bajaradigan vazifasi
Institutsional-huquqiy asos	Investitsion faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar, soliq va bojxona imtiyozlari tizimi	Investorlar huquqlarini himoya qilish, investitsion muhit barqarorligini ta'minlash
Moliyaviy-kredit mexanizmlari	Bank kreditlari, obligatsiyalar, lizing, ipoteka, eskrou-hisobvaraqlar	Loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash
Tashkiliy-boshqaruv tizimi	Investitsion qarorlar qabul qilish, loyihalarni tanlash va baholash tartibi	Investitsion jarayonning maqsadga muvofiqligini ta'minlash
Davlat-xususiy sheriklik vositalari	Konsessiya, GChP shartnomalari, davlat kafolatlari	Davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish
Risklarni boshqarish mexanizmi	Sug'urtalash, garov, kafolat majburiyatlari, hedjdlash vositalari	Investitsion, moliyaviy va qurilish-texnik risklarni kamaytirish
Nazorat va monitoring tizimi	Investitsion loyihalar ustidan audit, hisobdorlik va baholash mexanizmlari	Investitsiyalardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash

Manba: [1; 2; 6; 9] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining shakllanishi va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq o'rganish maqsadida 2021–2025 yillar davomidagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish sektorining iqtisodiyotdagi o'rni dinamikasi (2021–2025 yy.)


Yil	Respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, trln so'm	Qurilish va ko'chmas mulk sektorining YalMdagi ulushi, %	Ko'chmas mulk bilan ta'minlangan kreditlar ulushi, %
2021	239,6	5,7	29
2022	266,2	6,5	31
2023	356,1	7,4	33
2024	507,5	8,3	35
2025	591,1	9,1	37

Manba: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [16; 17].

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025 yillar davomida respublika bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 239,6 trln so'mdan 591,1 trln so'mga yetib, 2,5 baravardan ortiq oshgan. Shu bilan birga, qurilish va ko'chmas mulk sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,7 foizdan 9,1 foizga ko'tarilgan, bu esa tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa e'tiborli jihat - ko'chmas mulk bilan ta'minlangan kreditlar ulushining bank kredit portfelida 29 foizdan 37 foizgacha o'sishi, bu qurilish sohasining bank-moliya tizimi bilan bog'liqligini va garov mexanizmi sifatidagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.



Yuqorida bayon etilgan tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, muallif tomonidan qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model to'rt darajadan iborat: birinchi darajada uchta asosiy investitsiya manbai (ichki manbalar, xorijiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik) joylashgan; ikkinchi darajada ularni birlashtiruvchi investitsiyalarni jalb qilish boshqaruv mexanizmi aks etgan; uchinchi darajada ushbu mexanizmni ta'minlovchi ikki vosita - institutsional-huquqiy asos va risklarni boshqarish tizimi joylashtirilgan; to'rtinchi daraja esa yakuniy natija - qurilish korxonalari raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishining oshishini ifodalaydi.



1-rasm. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarish modeli (muallif ishlanmasi)

Taklif etilayotgan model shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining samaradorligi faqat jalb qilingan investitsiya hajmi bilan emas, balki ularni boshqarish jarayonining institutsional sifati bilan ham belgilanadi. Xususan, investitsiya manbalarining xilma-xilligi (ichki, xorijiy, GChP) bilan bir qatorda, ushbu manbalardan samarali foydalanishni ta'minlovchi huquqiy va nazorat mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Model shuningdek J.Danningning eklektik paradigmasi [1] bilan uyg'un ravishda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda joylashuv ustunliklari (Location advantages) - qulay institutsional muhit, soliq imtiyozlari va infratuzilma rivojlanganligi kabi omillarning rolini alohida ajratib ko'rsatadi.

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini baholash uchun muallif tomonidan quyidagi umumlashtirilgan indeks taklif etiladi:

$$J_{inv} = \alpha \cdot K_j + \beta \cdot K_t + \gamma \cdot K_r$$

bunda: J_{inv} - investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining umumlashtirilgan samaradorlik indeksi;



K_j - jalb qilingan investitsiyalar hajmining o'sish koeffitsienti (joriy davr investitsiya hajmining baza davrga nisbati);

K_t - investitsiyalarning tarmoq (qurilish sanoati) yalpi ichki mahsulotidagi ulush o'zgarishi koeffitsienti;

K_r - investitsion risklar darajasining pasayish koeffitsienti;

α, β, γ - tegishli koeffitsientlarning vazn ulushlari bo'lib, ularning yig'indisi birga teng ($\alpha + \beta + \gamma = 1$) va ekspertlar bahosi asosida belgilanadi. Ushbu indeks yordamida turli davrlar yoki korxonalar kesimida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini bir xil o'lchov birligida taqqoslash mumkin.

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining shakllanishi va samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni umumlashtirgan holda, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: birinchidan, institutsional-huquqiy omillar - investitsion qonunchilikning barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari tizimi, mulk huquqlarining himoyalanganlik darajasi; ikkinchidan, moliyaviy omillar - bank kreditlari foiz stavkalari, moliya bozorining rivojlanganlik darajasi, milliy valyuta kursi barqarorligi; uchinchidan, tashkiliy-boshqaruv omillari - korxonaning investitsion loyihalarni boshqarish salohiyati, menejment sifati, korporativ boshqaruv darajasi; to'rtinchidan, tarmoq-texnik omillar - qurilish texnologiyalarining zamonaviyligi, raqamlashtirish darajasi, qurilish materiallari bozorining rivojlanganligi; beshinchidan, ijtimoiy-ekologik omillar - atrof-muhitga ta'sir, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish darajasi. Ushbu omillarning har biri alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi, bu esa investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishda kompleks yondashuvni talab etadi.

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar tizimi taklif etiladi: jalb qilingan investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati; investitsiyalarning tarmoq yalpi ichki mahsulotidagi ulushi; investitsion loyihalarning amalga oshirilish muddatiga muvofiqligi; jalb qilingan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi (investitsiya birligiga to'g'ri keluvchi iqtisodiy natija); investitsion risklar darajasi va ularni boshqarish sifati; davlat-xususiy sheriklik loyihalari ulushi; investitsion muhit shaffofligi va hisobdorlik darajasi. Ushbu mezonlar majmui davlat idoralari va qurilish korxonalari rahbariyati uchun investitsion jarayonni muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilish hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega, ammo bu o'sish mexanizmning barcha tarkibiy elementlari bir xil sur'atda takomillashayotganini anglatmaydi. Investitsiya hajmining 2,5 baravar oshishi, asosan, ichki manbalar va bank kreditlari hisobiga ta'minlangan bo'lib, bu J.M.Keynsning investitsiyaning chegaraviy samaradorligi konsepsiyasi [2] bilan mos keladi: barqaror makroiqtisodiy muhit va pasayuvchi foiz stavkalari investitsion faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish darajasining nisbatan pastligi K.Mamonov va hammualliflarning [6] xulosasini tasdiqlaydi: investitsion jozibadorlik faqat





moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar sifati bilan ham belgilanadi, bu esa O'zbekiston qurilish sanoatida hali to'liq shakllanmagan yo'nalish hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2024 yilda 1,6 baravar oshgani [17] J.Danningning eklektik paradigmasi [1] nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, bu o'sish avvalo mamlakatning joylashuv ustunliklari (Location advantages) - soliq imtiyozlari, arzon mehnat resurslari va kengayib borayotgan ichki bozor - bilan izohlanadi. Biroq internalizatsiya ustunliklari, ya'ni xorijiy investorlarning mahalliy institutsional muhitga bo'lgan ishonchi, hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining institutsional-huquqiy elementini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida aniqlangan yana bir muhim natija - qurilish sanoatida raqamli transformatsiya darajasi bilan investitsion faollik o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikdir. Bu natija J.Chju va Sh.Ningning Xitoy qurilish sanoati misolidagi xulosalari [3] bilan to'liq mos keladi: raqamlashtirilgan va innovatsion menejmentga ega korxonalar investorlar nazarida yuqoriroq ishonchga ega bo'ladi. Shu bois qurilish sanoatida PropTech va raqamli qurilish texnologiyalarini joriy etish nafaqat operatsion samaradorlikni, balki investitsion jozibadorlikni ham oshirishning muhim vositasi hisoblanadi [5].

Taklif etilgan konseptual model va samaradorlik indeksi (Jinv) amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin: birinchidan, davlat idoralari uchun qurilish sanoatiga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda; ikkinchidan, qurilish korxonalari rahbariyati uchun investitsion loyihalarni tanlash va baholashda; uchinchidan, tijorat banklari va moliya institutlari uchun qurilish sohasidagi investitsion risklarni baholashda. Tadqiqot natijalarining cheklangan jihati shundaki, tahlil asosan makro darajadagi statistik ma'lumotlarga asoslangan; alohida korxonalar kesimidagi mikro darajadagi empirik tadqiqot va regression modellashtirish kelgusi ilmiy izlanishlar uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi qurilish sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini ta'minlovchi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega kategoriya hisoblanadi.

2. Qurilish sanoatining o'ziga xos xususiyatlari - uzoq muddatli loyiha sikli, yuqori kapital sig'imkorlik va risklarning murakkabligi - tarmoqqa mos differensiallashgan institutsional va moliyaviy yondashuvlarni qo'llash zaruratini ko'rsatadi.

3. Tadqiqot doirasida aniqlangan asosiy muammo - investitsiya hajmining o'sishiga qaramasdan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish darajasining pastligi hamda investitsion risklarni boshqarish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligidir.





4. Muallif tomonidan taklif etilgan konseptual model va samaradorlik indeksi (Jinv) ilmiy asoslangan bo'lib, ularni davlat idoralari, qurilish korxonalari va moliya institutlarining qaror qabul qilish jarayonlarida qo'llash mumkin.

5. Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini oshirish uchun institutsional-huquqiy, moliyaviy, tashkiliy va risklarni boshqarish mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks siyosat yuritish zarurati asoslandi.

6. Davlat-xususiy sheriklik va konsessiya mexanizmlarini qurilish sanoatida kengroq joriy etish, shuningdek investitsion loyihalar ustidan nazorat va hisobdorlik tizimini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

7. Qurilish sanoatida raqamli transformatsiya va PropTech texnologiyalarini joriy etish investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omili sifatida asoslandi, bu borada davlat tomonidan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ko'rish tavsiya etiladi.

8. Investitsion jarayon samaradorligini baholash uchun taklif etilgan mezonlar tizimi (investitsiya o'sish sur'ati, tarmoq ulushi, risk darajasi, GChP ulushi) kelgusida qurilish sanoatini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda uslubiy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. - 2nd ed. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 1993. - 687 p.

2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - London: Macmillan, 1936. - 403 p.

3. Zhu Z., Ning S. Corporate Digital Transformation and Strategic Investments of Construction Industry in China // Heliyon. - 2023. - Vol. 9, Issue 7. - Art. e17879.

4. Tachega M.A., Wang J., Chen Y., Ahmed R., Opoku E.O., Mintah C., Bart-Plange L. Investment Attractiveness in BRICS+ Economies: Evaluating Business Environment Reforms, Institutional Quality, and Macroeconomic Factors // PLOS ONE. - 2025. - Vol. 20, Issue 10. - Art. e0334043.

5. McKinsey & Company. From Start-up to Scale-up: Accelerating Growth in Construction Technology. - New York: McKinsey & Company, 2023.

6. Mamonov K., Kanivets O., Khailo Y., Haidenko S., Boginska L. Investment Attractiveness of Construction Enterprises: Conceptual Framework and Assessment // Science and Innovation. - 2026. - Vol. 22, No. 2. - P. 47–58.

7. Kytaichuk T. Investment Attractiveness: Theoretical Analysis and Influencing Factors // Economy and Society. - 2023. - Issue 54.

8. Astanakulov O.T., Asatullaev K.S., Saidaxmedova N.I., Ergashev O.T. Strategic Support for Accounting for the Investment Process in the Innovation Industry // Journal of Advanced Research in Law and Economics. - 2019. - Vol. 10, No. 6. - P. 1877–1883.

9. Yusupdjanova N., Karimov I. Investment Projects in the Field of Construction Materials Production // ISJ Theoretical & Applied Science. - 2020. - No. 03 (83). - P. 18–21.





10. Arifdjanova Z.D. Assessing the Improvement of Management Efficiency in Construction Companies // American Journal of Economics and Business Management. - 2024. - Vol. 7, No. 12. - P. 1337–1343.
11. G'iyosov I.Q., Toxirova R.A. O'zbekistonda islomiy bank xizmatlarini tatbiq qilish imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. - 2026. - №3. - B. 855–862.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-598-son, 2019 yil 25 dekabr.
14. O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-537-son, 2019 yil 10 may.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qurilish sanoatining 2021–2025-yillarga mo'ljallangan barqaror va innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi Qarori, 2020 yil 27 noyabr.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha statistik to'plam, 2021–2025 yy. - Toshkent, 2026.
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xorijiy investitsiyalar va to'lov balansi sharhi, 2024–2025 yy. - Toshkent: Markaziy bank, 2025.
18. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Qurilish sanoati investitsion muhiti sharhi, 2025 yil. - Toshkent: ITIM, 2025.
19. Jahon banki. O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha tahliliy hisobot. - Vashington: Jahon banki, 2024.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**